

Isroil Xudoyberdiev Pokiston elchisini qabul qildi

Image not found or type unknown



Isroil Xudoyberdiev Pokiston elchisini qabul qildi

Bugun, 10 iyun kuni Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev Pokiston Islom Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Said Ali Asad G'iloniy bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda viloyat hokimining o'rinbosari Jo'rabek To'raev va shahar hokimining mas'ul o'rinbosarlari ishtirok etdi. O'tkazilgan uchrashuvda Termiz

shahrida xalqaro maktab va xalqaro o'quv markazi tashkil etish, mexmonxona qurish uchun investor jalb etish, tibbiyot va xizmat ko'rsatish sohalarida hamkorlik qilish borasida amalga oshiriladigan ishlar va bir qancha masalalar muhokama etildi

